



FORMATION AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DEPARTMENT OF PSYCHOLOGY AT BUKHARA STATE UNIVERSITY

Mavluda Oqnazarova

Lecturer

Asian University of Technologies

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Bukhara State University, Department of Psychology, Scientific School, Educational Areas, Pedagogical-Psychological Integration, Scientific Projects, Fundamental Research, Psychological Service, OAK, PhD Council, State Grant.

Received: 17.05.25

Accepted: 19.05.25

Published: 21.05.25

Abstract: This article provides a scientific analysis of the establishment of the Department of Psychology at Bukhara State University, the stages of historical formation and modern development trends. The structural evolution of the department, the potential of professors and teachers, the expansion of educational programs, and the socio-pedagogical significance of the department are highlighted based on the implemented republican and international scientific projects. The article also analyzes the integration of psychology into the practical sphere, the role of the department in reforms within the framework of state policy, the formation of scientific schools and its place in the system of modern psychological services. Based on the information provided, it is substantiated that the Department of Psychology at Bukhara State University is being formed not only as a regional, but also as a republican scientific and pedagogical center.

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETIDA PSIXOLOGIYA KAFEDRASINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Mavluda Oqnazarova

o'qituvchi

Osiyo texnologiyalar universiteti

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Buxoro davlat universiteti, psixologiya kafedrasi, ilmiy maktab, ta'lim yo'nalishlari, pedagogik-psixologik

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro davlat universiteti qoshida psixologiya kafedrasining tashkil topishi, tarixiy

integratsiya, ilmiy loyihalar, fundamental tadqiqot, psixologik xizmat, OAK, PhD kengash, davlat granti.

shakllanish bosqichlari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari ilmiy tahlil qilinadi. Kafedraning tarkibiy evolyutsiyasi, professor-o'qituvchilar salohiyati, ta'lim dasturlarining kengayishi hamda amalga oshirilgan respublika va xalqaro ilmiy loyihalar asosida kafedraning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada psixologiya fanining amaliy sohaga integratsiyalashuvi, davlat siyosati doirasidagi islohotlarda kafedra roli, ilmiy maktablar shakllanishi va zamonaviy psixologik xizmatlar tizimidagi o'rni tahlil etilgan. Keltirilgan ma'lumotlar asosida Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasining nafaqat viloyat, balki respublika miqyosidagi ilmiy-pedagogik markaz sifatida shakllanib borayotgani asoslab berilgan.

СТАНОВЛЕНИЕ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ КАФЕДРЫ ПСИХОЛОГИИ БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Мавлюда Окназарова

Преподаватель

Азиатский технологический университет

Кариш, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бухарский государственный университет, факультет психологии, научная школа, образовательные направления, педагогико-психологическая интеграция, научные проекты, фундаментальные исследования, психологическая служба, ОАК, докторский совет, государственный грант.

Аннотация: В статье дается научный анализ создания кафедры психологии Бухарского государственного университета, этапы исторического становления и современные тенденции развития. Социально-педагогическая значимость кафедры подчеркивается на основе структурной эволюции кафедры, потенциала профессорско-преподавательского состава, расширения образовательных программ, реализуемых республиканских и международных научных проектов. В статье также анализируется интеграция психологии в практическую сферу, роль кафедры в реформах в рамках государственной политики, формирование научных школ, ее место в системе современных психологических служб. На основании предоставленной информации обосновывается, что кафедра психологии Бухарского государственного университета развивается не только как региональный, но и как республиканский научно-педагогический центр.

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar shiddat bilan kechayotgan davrda inson omili, uning psixologik xususiyatlari va ijtimoiy faolligini chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida psixologiya fani nafaqat shaxsning ichki olami, balki davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan soha sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, psixologik bilimlarning shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuvchanlik, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, mamlakatda inson omilini rivojlantirishga, ya'ni inson kapitaliga qaratilgan e'tibor tubdan kuchaydi. Bu jarayon ijtimoiy hayotning barcha sohalarida — ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, mehnat munosabatlari va boshqalar — inson resurslarini rivojlantirish va samarali boshqarish masalasini ustuvor vazifaga aylantirdi. Xususan, inson ruhiy dunyosini chuqur o'rganish, uning shaxs sifatidagi shakllanishi va ijtimoiy muhit bilan moslashuvi mexanizmlarini tahlil etish zaruriyati psixologiya fanining dolzarbligini yanada oshirdi.

Mustaqillikdan keyingi yillarda psixologiya sohasida tizimli va strategik yondashuv asosida olib borilgan islohotlar tufayli, oliy ta'lim muassasalari tarkibida psixologik ta'lim yo'nalishlari bosqichma-bosqich joriy etildi. Bu yo'nalishlar zamirida, inson psixikasining turli jihatlarini o'rganish, yoshlar tarbiyasi, oila va jamiyatdagi muammolarni psixologik jihatdan tahlil qilish, kasbiy yo'nalishda moslashuvchan shaxslarni tayyorlash maqsadi yotadi.

Asosiy qism: O'zbekistonda psixologiya fanini rivojlantirish, psixologik ta'limni takomillashtirish va sohaga zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlarni joriy etish borasida qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-avgustdagi "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida psixologiya o'quv-ilmiy markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [1] psixologiya sohasida ilmiy-amaliy salohiyatni mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim huquqiy hujjatlardan biri bo'ldi.

Mazkur qaror asosida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzurida Psixologiya o'quv-ilmiy markazi tashkil etildi. Ushbu markazning asosiy vazifalari sifatida: psixologiya sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish, zamonaviy psixodiagnostik metodlarni ishlab chiqish va joriy etish, pedagogik psixologiya, yoshlar psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya kabi yo'nalishlarda ilmiy maktablarni shakllantirish ko'zda tutilgan.

Markazni kadrlar bilan ta'minlash jarayonida xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida tahsil olgan, shuningdek, psixologiya sohasida ko'p yillik ilmiy-pedagogik tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish masalasi alohida e'tibor

markazida bo'ldi [2]. Bu esa nafaqat ilmiy salohiyatni kuchaytirish, balki xalqaro tajribani milliy psixologik amaliyotga integratsiya qilish imkonini berdi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda psixologik ta'limning hududiy diversifikatsiyasi yo'lida Buxoro davlat universiteti ham yetakchi o'rin egallamoqda. Universitet qoshidagi Psixologiya kafedrası o'z faoliyatini keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, amaliy psixologiyaga oid fanlarni o'qitish orqali amalga oshirib kelmoqda. Mazkur kafedra respublikaning janubi-g'arbiy hududlari uchun malakali psixolog kadrlarni tayyorlashda muhim ilmiy-pedagogik maskan sifatida tan olingan.

Yuqoridagi tashabbuslar va qarorlar psixologiya fanining davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi va ilmiy-tadqiqot muassasalari negizida tashkil etilayotgan o'quv-ilmiy markazlar esa psixologiyaning amaliyotga yaqinlashuvi, professional psixologik xizmatlar sifatining oshishi va ilm-fan integratsiyasining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Buxoro davlat universitetida psixologiya fanining shakllanishi va rivojlanishida bir qator taniqli pedagog-olimlar muhim ilmiy-ma'rifiy faoliyat olib borgan. Kafedra tarixi XX asrning birinchi yarmiga borib taqaladi. Dastlabki yillarda kafedraga yetuk mutaxassislar rahbarlik qilgan bo'lib, ular nafaqat o'quv jarayonini tashkil etgan, balki psixologiya fanining ilmiy metodologiyasini shakllantirishga katta hissa qo'shganlar.

1933–1935-yillarda kafedraga professor M.S. Smolenskiy rahbarlik qilgan. Undan keyin esa 1935–1940-yillar davomida professor V.M. Zaborskiy boshqaruvni davom ettirdi. 1941–1957-yillar mobaynida kafedra faoliyati dotsent V.P. Narishkin rahbarligida olib borilgan bo'lib, bu yillarda urush va urushdan keyingi davrning ijtimoiy-psixologik muammolari ilmiy tahlil etilgan.

1958–1959-yillarda dotsent A.A. Xolmetov, 1959–1974-yillarda esa professor Sh.P. Balavadze kafedrani boshqargan. Aynan Balavadze rahbarligida kafedraning ilmiy salohiyati sezilarli darajada ortib, psixologiyaning amaliy yo'nalishlari bo'yicha yangi darslik va metodik qo'llanmalar yaratilgan. 1974–1975-yillarda kafedra mudiri lavozimida professor K.Z. Zaripov faoliyat yuritgan.

1979-yil kafedra tarixida muhim bosqich bo'ldi. Shu yildan boshlab, ilgari yagona bo'lgan “Pedagogika va psixologiya” kafedrası ikkiga ajratilib, alohida “Pedagogika” va “Psixologiya” kafedralari sifatida tashkil etildi. Bu ajralish psixologiya fanining mustaqil yo'nalish sifatida rivojlanishiga, o'zining nazariy va amaliy bazasini kengaytirishiga xizmat qildi.

Ajratilgan “Psixologiya” kafedrasiga turli yillarda quyidagi olimlar rahbarlik qilgan:

- R.A. Tursunov – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (1979–1982 yillar). Uning davrida shaxs psixologiyasi va rivojlanish psixologiyasi yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar faollashdi.

- L.P. Xoxlova – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (1982–1988 yillar). U ijtimoiy psixologik muhit va guruhlararo munosabatlar masalalariga e‘tibor qaratdi.

- M.N. Usmanova – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (1989–1994 yillar). Uning rahbarligida ta‘lim psixologiyasi va yoshlar muammolari bo‘yicha metodik ishlanmalar yaratildi.

1994–2004-yillarda kafedra faoliyati ikkita yo‘nalishda davom ettirildi:

1. Fakultetlararo “Pedagogika va psixologiya” kafedrası;
2. “Pedagogika va jismoniy madaniyat” fakulteti huzuridagi “Pedagogika va psixologiya asoslari” kafedrası.

Mazkur kafedralar pedagogik va psixologik ta‘limni uzviy uyg‘unlikda olib borib, psixologiya fanining boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta‘minladi. Bu davrda o‘quv-metodik ishlar bilan bir qatorda psixologik xizmat ko‘rsatish va psixodagnostika bo‘yicha amaliy dasturlar ishlab chiqildi.

2004-yildan boshlab Buxoro davlat universitetida psixologiya kafedrası o‘z faoliyatini mustaqil tuzilma sifatida yana bir yangi bosqichga olib chiqdi. Dastlab ushbu kafedra sobiq “Pedagogika va jismoniy madaniyat” fakulteti tarkibida, keyinchalik esa “Gumanitar fanlar fakulteti” (hozirgi Tarix fakulteti) hamda “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” fakultetlari qoshida faoliyat olib bordi. Shu yillarda kafedraga psixologiya fanlari doktori, professor Sharif Ramazonovich Barotov rahbarlik qildi. Uning ilmiy-metodik boshqaruvi ostida kafedra yangi bosqichda taraqqiy topdi, zamonaviy psixologiya fanining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ta‘lim va tadqiqotlar olib borildi.

2010-yilda tashkil etilgan struktura islohotlari natijasida kafedra tarkibiga sobiq Sotsiologiya kafedrası qo‘shilib, uning nomi “Psixologiya va sotsiologiya” kafedrası deb o‘zgartirildi. Bu integratsiya psixologik va ijtimoiy-gumanitar fanlarning uyg‘unligida olib borilayotgan o‘quv va ilmiy faoliyatni mustahkamlashga xizmat qildi. Biroq 2017-yildan boshlab ushbu tarkibiy birlashma qayta ko‘rib chiqilib, Sotsiologiya kafedrası ajratib chiqildi va natijada kafedra yana “Psixologiya” nomi bilan mustaqil faoliyatini davom ettirdi.

Hozirgi kunda kafedrada 26 nafar professor-o‘qituvchi asosiy shtat asosida ilmiy-pedagogik faoliyat olib bormoqda. Ular orasida fan doktorlari, nomzodlari, dotsentlar va tajribali amaliyotchi psixologlar mavjud bo‘lib, bu salohiyat kafedraning ilmiy-tadqiqot va ta‘lim sifatini yuqori darajada saqlab turishiga imkon yaratmoqda.

Kafedra O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan psixologiya fanlari bo'yicha ilmiy-metodik seminarlar o'tkazish, dissertatsiyalar uchun rasmiy taqriz beruvchi etakchi tashkilot maqomini olgan. Bu esa kafedraning respublika miqyosida ilmiy markaz sifatida tan olinganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, kafedra qoshida Buxoro davlat universiteti huzuridagi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 raqamli ixtisoslashgan ilmiy kengash faoliyat yuritadi. Ushbu kengash doirasida yosh olimlar va izlanuvchilar o'z tadqiqotlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lib, ilmiy salohiyatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kafedrada quyidagi mutaxassislar tayyorlanmoqda:

Bakalavriat bosqichi:

- 5210202 – Psixologiya (amaliy psixologiya): bu yo'nalish psixologik maslahat, psixodiagnostika, korreksion va profilaktik faoliyatlarni o'z ichiga oladi;
- 5210204 – Psixologiya (oilalik psixologiyasi): nikoh, oila, ota-ona va farzand munosabatlari, oiladagi nizolarni yechish bo'yicha psixologik yondashuvlar o'rgatiladi.

Magistratura bosqichi:

- 5A5210200 – Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha): turli kasbiy sohalarda inson faoliyatining psixologik jihatlarini chuqur tahlil qilish, ijtimoiy-muloqot kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar: O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Psixologiya kafedrasida oliy ta'lim tizimida yuksak ilmiy-pedagogik salohiyatga ega bo'lgan kafedralardan biri hisoblanadi. Kafedrada har yili bakalavriat va magistratura bosqichlarida 40 dan ortiq fanlar o'qitilib, talabalarga fundamental nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalar ham singdirilmoqda.

2020-2021-o'quv yilida kafedrada 2 nafar fan doktori, professor (SH.R.Barotov, A.A.Xuseynova) 5 nafar psixologiya fanlari nomzodi (M.N.Usmanova, SH.M.Ulug'ova, D.SH.Barotova, E.M.Muxtorov, U.S.Jumaev), 2 nafar psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (Sobirova D.A, Z.S.Elov), 3 nafar dotsentlar (A.M.Nazarov, L.Y.Olimov, O.R.Avezov,) 4 nafar katta o'qituvchi (G.B.Xudoyqulova, E.S.Eshov, SH.SH.Ostonov, U.M.Ro'ziev, N.Z.Jumayev), 10 nafar o'qituvchi (J.SH.Ostonov, SH.SH.Rustamov, D.M.Qodirova, Ismatova D.T, S.B.Qosimova, M.X.Tilavov, M.M.Nazarova, A.A.Sobirov, N.R.Axmadoy, SH.SH.Salixov,) ta'lim – tarbiya ishlarini olib bordi.

Kafedra o'qituvchilari nafaqat ta'lim berish, balki ilmiy tadqiqot, grant loyihalari va yoshlarni ilmga jalb etish borasida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Kafedraning ilmiy salohiyati asosiy shtatdagi 38 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan minimal me'yorlardan yuqori bo'lib, kafedraning ilmiy darajali pedagoglar ulushi

nisbatan barqarorligini ko'rsatadi. Kafedra a'zolarining o'rtacha yoshi 35 yosh bo'lib, bu tarkibning ilmiy yangilanish jarayonini doimiy ta'minlab turuvchi yosh va iqtidorli mutaxassislar bilan boyiganini bildiradi.

Kafedra a'zolari tomonidan bir qator respublika va davlat miqyosidagi ilmiy loyihalar amalga oshirilgan. Xususan, 2017–2018-yillarga mo'ljallangan fundamental grant loyihasi bo'yicha psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Erkin Mustafoyevich Muxtorov rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan I-2017-1-12 raqamli loyiha amalga oshirildi. Ushbu loyiha: "Yuksak malakali sportchilar va pedagog-trenerlar tayyorlash tizimiga innovatsion tibbiy-biologik, pedagogik va psixologik texnologiyalarni kompleks joriy etish" mavzusida bo'lib, 25 000 000 so'm miqdorida moliyalashtirildi. Loyiha davomida sport psixologiyasi, pedagogik monitoring va ijtimoiy-psixologik moslashuvga oid yangi texnologiyalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, 2016–2017 o'quv yili doirasida Davlat texnik dasturlari asosida kafedra a'zolari ishtirokida YOA-1-9 raqamli yosh olimlar amaliy tadqiqoti bo'yicha "Aholining turli qatlamlarida psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti" mavzusidagi loyiha ham muvaffaqiyatli bajarildi. Loyiha 50 000 000 so'm miqdorida moliyalashtirilgan bo'lib, belgilangan muddatda samarali tarzda yakunlandi. Mazkur tadqiqot natijalari aholining psixologik farovonligi, stressga bardoshlilik va muammoli holatlarda psixologik yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, uning amaliy qiymati yuqori baholangan.

O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Psixologiya kafedrasida respublika miqyosidagi muhim ilmiy-tadqiqot loyihalarida faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, 2017–2020-yillarga mo'ljallangan OT-F1-002 raqamli fundamental loyiha doirasida "Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" mavzusi yuzasidan keng qamrovli izlanishlar olib borildi. Ushbu loyiha O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (avvalgi Fan va texnologiyalarni rivojlantirish qo'mitasi) tomonidan tasdiqlangan bo'lib, uning umumiy moliyaviy hajmi 130 000 000 so'mni tashkil etdi.

Loyihaning asosiy maqsadi — yosh avlod ongida milliy g'oya va mafkuraviy barqarorlikni shakllantiruvchi psixologik omillarni aniqlash, ularning amaliy ta'sir mexanizmlarini ishlab chiqish va bu borada samarali psixodiagnostik vositalarni yaratishdan iborat edi. Tadqiqotlar zamonaviy psixologik metodologiyalarga tayangan holda, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, identitet darajasi, mafkuraviy ta'sirlarga nisbatan qarshilik ko'rsatish salohiyati hamda ichki motivatsiyasini aniqlashga qaratildi.

Mazkur fundamental loyiha O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish, mafkuraviy tahdidlar va tashqi axborot bosimlariga qarshi immunitet hosil

qilishga qaratilgan psixologik yondashuvlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqotlar milliy manfaatlarini ilgari surish, yoshlar ongini mustahkamlash va ularni ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida shakllantirishga xizmat qildi.

Xulosa: O'zbekiston ta'lim tizimi va psixologiya sohasida ilmiy va amaliy integratsiyani kuchaytirish, zamonaviy psixologik yondashuvlarni ta'lim, tarbiya va ijtimoiy sohalarga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Xususan, u jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish, ijtimoiy-iqtisodiy muhitda barqarorlikni ta'minlash, shuningdek, inson resurslarini samarali boshqarishda psixologik xizmat va maslahatlar tizimini yo'lga qo'yishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, psixologiya fanining davlat siyosati darajasida e'tirof etilishi, uning faqat akademik doiradagi nazariy yo'nalish emas, balki strategik va amaliy ahamiyatga ega soha sifatida tan olinishini ta'minlamoqda. Psixologiya bugungi kunda sog'liqni saqlash, ta'lim, boshqaruv, harbiy xizmat, ijtimoiy xizmatlar va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim vosita sifatida faol ishtirok etmoqda. Natijada, psixologik bilim va kompetensiyalar umumiy inson kapitalining ajralmas qismiga aylangan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan mazkur islohotlar psixologiyani milliy taraqqiyotga qo'shayotgan hissasini chuqurroq anglash, uni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy strategiyalar bilan uyg'unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa psixologiya fanini nafaqat ta'lim tizimining ajralmas bo'lagi, balki milliy xavfsizlik va barqaror rivojlanishning tarkibiy omili sifatida qaralishiga zamin yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 29 avgustda "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida psixologiya o'quv-ilmiy markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // <https://lex.uz/uz/docs/3367425>
2. Egamberdiyeva D.A. Ergash G'oziyev ilmiy merosining O'zbekiston psixologiya fani tarqiyotidagi o'rni. International scientific and practical conference VOLUME 2 | ISSUE 1. 2025 January. – P.209.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-sonli "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori // <https://lex.uz/uz/docs/4367731>
4. Бухоро давлат университети. – Бухоро, 2016. – 551 б
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga psixologik xizmat ko'rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori // <https://regulation.gov.uz/uz/d/25665>
6. Begmatov A. Psixologiyani boshqa sohalarga ta'siri va uni o'rganishdagi kamchiliklar.
7. <https://buxdu.uz>